

OGAHINYNING „ARZIMAS” RADIFLI MUXAMMASI MAZMUNYI TAHLILI

Mardonova Gulchehra Ulug’bekovna
Navoiy davlat universiteti 1-kurs doktoranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada mashhur xiva adibi Muhammad Rizo Erniyozbek o‘g‘li Ogahiyning “Arzimas” radifli muxammasi mazmunan tahlil qilinadi. Asarda shoirning ichki kechinmalari, insoniy munosabatlarga bo‘lgan munosabati, jamiyatdagi nohaqlik va befarqlikka bo‘lgan tanqidi ifodalanadi. Muxammas shaklidagi ushbu asarda "arzimas" radifi orqali shoir zohiriy arzimasdek ko‘ringan hodisalar ortida yotgan muhim ma’naviy va axloqiy masalalarni ochib beradi. Tahlil davomida asarning badiiy xususiyatlari, janr imkoniyatlari hamda stilistik vositalari ham yoritib beriladi.

Kalit so‘zlar: Ogahiy, muxammas, radif, “arzimas”, mazmuniy tahlil, badiiy tahlil, tasviriy vosita, axloqiy g‘oya, o‘zbek adabiyoti, muxammas, dahr, bazm, aysh, Zayd, Xolid, g‘am, qanoat

Asrlar davomida rivojlanib kelayotgan milliy adabiyotimizda mumtoz asarlarning ham o‘rni beqiyosdir. Klassik adabiyotimizning betakror namunalari nafaqat yurtimiz, balki jahon mamlakatlarida ham o‘rganilib tadqiq etilmoqda. Bular qatorida muxammas janrida yozilgan asarlar ham o‘z o‘rniga ega. Muxammas- mumtoz adabiyotimizda o‘ziga xos qofiyalanish tartibiga ega bo‘lgan beshlik band usulida yozilgan she‘r. Qofiyalanish tartibi birinchi band misralari o‘zaro bir xilda qofiyalanadi (sxemasi: a + a + a + a + a), keyingi bandlardagi dastlabki to‘rt misra o‘zaro qofiyalanib, so‘nggi beshinchi misralar birinchi bandning beshinchi misrasi bilan ohangdosh bo‘ladi. (sxemasi: b + b + b + b + a).¹³⁵ O‘zbek adabiyotida Hofiz Xorazmiy, Gadoiy, Navoiy, Mashrab, Nodira, Furqat, Munis, Ogahiy ijodida muxammaslarning go‘zal namunalari ko‘rishimiz mumkin. Bular orasidan Ogahiy ijodidagi muxammaslarga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak. Muxammaslar Ogahiy davridan oldingi ijodkorlar ijodida uchragan bo‘lsa-da, bu janr uning ijodida taraqqiyot darajasiga ko‘tarildi. Raxmat Majidiy o‘z monografiyasida: „Shu kabi shoirlarning ijodi tufayli muxammas janri o‘zbek adabiyoti tarixida brogan sari taraqqiy qilib, poeziyada o‘z o‘rnini saqlab qolmoqda.”¹³⁶ Ogahiy muxammaslari mavzusi, asosan, oshiqona va orifona ruhda yozilgan bo‘lib, jami soni 90 tani tashkil etadi. Quyida ijodkorning „Arzimas” radifli

¹³⁵ O. Karimov. Mumtoz she‘riyat janrlari. Uslubiy qo‘llanma. Namangan. 2015.

¹³⁶ Majidiy R. Ogahiy lirikasi. T., Fan, 1963. -138-bet

muxammasi mazmuniga qaraydigan bo'lsak, mavzu jihatdan orifona bo'lgan bu muxammas jamiyat uchun tarbiyaviy ahamiyatga ega:

Rohati dunyo baloyi mubramig'a arziyas,
Oshkoro no'shi nishi mubhamig'a arziyas.
Yuz isig' kulgusi bir sovuq damig'a arziyas,
Dahr bazm-u ayshi anduhi g'amig'a arziyas,
Sharbati jonparvari muhlik samig'a arziyas.

Shoir aytadiki, bu o'tkinchi dunyoning rohatlari muqarrar balolar oldida arzimaydi, ya'ni foniy dunyo rohatlari vaqtinchadir, har bir inson boshiga tushishi kerak bo'ladigan o'lim oldida esa bu rohatlarga aldanib qolmaslik lozim. Dunyoning ko'rinib turgan lazzatlari qanchalik totli bo'lmasin, uning ichi zaharga to'la. Bu zaharning beradigan zarari oldida o'sha rohatlar arziyas ekanligi ta'kidlanadi. Keyingi misrada esa bu dunyoning „yuz isig' kulgusi“, ya'ni vaqtinchalik o'yin-kulgular shoir ta'biri bilan ta'riflangan „sovuq dam“- o'lim oldida hech qanday qiymatga ega emas. Dunyoning har qanday bazm, aysh-ishratlari keyin keladigan g'am oldida ahamiyatsizdir. Jon sharbati qanchalik totli bo'lmasin, uning oxiri halok qiluvchi zahardir. Bir so'z bilan aytganda, shoir dunyoning o'tkinchiligi va inson o'z nafsig'a berilib arziyas rohatlariga aldanib qolmasligiga ishora qilgan.

Bo'lsa bazming jannati soqiylari g'ilmon-u hur,
Topsang onda ulchakim koming erur aysh-u surur,
Voqif o'l, holingg'a bo'lma masti sahboyi g'urur,
Yetsa davrondin sango gar umrlar sur uzra sur
Bir nafas yetgan malol-u motamig'a arziyas.

Bu baytda ham ijodkor majoziy ma'nodan ustalik bilan foydalanib, insondagi salbiy xususiyatlardan biri bo'lgan kibrni qattiq qoralaydi. 1- misradagi bazm so'zini inson hayotiga qiyos etib, undagi xizmatkorlar g'ilmon va hurlardir (yigit va hur qizlar), ya'ni agar inson hayoti davomida to'kin hayotda yashab, aysh-ishratga berilib, uning xizmatida bo'lganlar hur va g'ilmonlarga o'xshasa ham, g'urur qilib kibrlanmasin. Bu hayotda qancha umr ko'rsa ham, uning boshiga keladigan bir lahzalik g'am va o'lim oldida hatto mansab-u boyliklari ham arziyasdek bo'lib qoladi.

Eyki ma'qul onglabon nafsing xayoli fosidin,
Aylading mahbub o'zingga dahr Zayd- u Xolidin,
Halqayi maqsud etib bo'yningg'a zulf-u soidin,
La'lidin gar jon topib quchsang muroding shohidin
Naz vaqti paykaring pech-u xamig'a arziyas

Bu baytning dastlabki misrasida shoir aql egalarini nafsdan ehtiyot bo'lib undan yiroq bo'lishga chorlaydi. Islom dini tarixidan ma'lumki, payg'ambarimiz davrida yashagan Zayd

ibn Xorisa va Xolid ibn al-Valid din yo'lida va Allohga va uning payg'amabariga bo'lgan muhabbati sabab jasorat va sadoqat timsoli sifatida ulug'lanadi. Shunday ekan, lirik qahramon o'zini yuksakka ko'tarib, yuqoridagi shaxslar bilan o'zini tenglashtiradi. Bu holatni shoir kibr sifatida tasvirlab, insonlarni kamtarlikka chorlaydi. 3- misrada esa haqiqiy maqsadi yo'lida ma'shuqaning (Allohning) zulfini (tasavvuf yo'lini) bo'yniga halqa qilish bilan „qullik“ maqomi orqali komillikka erishadi. Keyingi baytda ham majoziy ishq tasviri ostida ilohiy ishq tasvirlanadi: mahbubaning la'li (qimmatbaho qizil rangli tosh, mumtoz adabiyotda ko'pincha ma'shuqaning labini tasvirlashda foydalaniladi) orqali oshiq ilohiy maqomga erishadi. Ma'shuqaning nozi oldida oshiqning chekkan iztiroblari arzimadek ko'rinadi, chunki haqiqiy ishq yo'li fidoyilikni talab qiladi. Bu bayt orqali Insonning Allohga yetishish yo'lidagi qiyinchiliklari va ichki kechinmalari talqin qilinadi.

Maskan etting tut xilofat taxti uzra necha yil,
Ham bori olam elin avsofinga mashg'ul bil,
Bo'lsa gar hushing bularg'a g'arra bo'lsa onglag'il,
Madhinga ochsa ulus yuz xush iborat birla til,
Bir qabih alfoz ila qilg'on zamig'a arzimas.

Yuqoridagi misralarda ham shoir hukmdorga murojaat sifatida uzoq yillar hukmdor bo'lib, elning mehrini, obro'-e'tiborini qozongan bo'lishiga qaramay g'ururga berilmaslikni ta'kidlaydi. Bundan tashqari, xalq hukmdorni qanchalik madh qilib, yuz xil xush so'zlar bilan tilga olmasin, uning bir og'iz qabih so'zi yoki harakati barcha yaxshiliklarning zoye ketishiga sabab bo'lishi mumkinligi tog'risida fikr yuritilgan. Bu bayt orqali inson qanchalik yuqori martabada bo'lmasin, hamisha o'z xulqi, gap-so'zlarining odob doirasida va g'ururdan yiroqda bo'lishi nazarda tutiladi.

Jam etarga mol ranja qilmog'il jonu taning,
Oqil ersang aylagil rasmi qanoatni faning,
Bo'lma mahzun siym-u zardin to'lmadi deb mahzaning
Teng tut amvoli jahon beshu kaminikim, oning
Inbisoti beshi anduhi kamig'a arzimas.

Dastlabki baytda ijodkor ortiqcha mol-dunyo topish ilinjida inson o'z sog'ligi, umrini qiynab bular evaziga keladigan boylikdan qaytaradi. Bu orqali inson hayoti har qanday mol-dunyodan qimmatli va bebaho ekanligi nazarda tutiladi. Keyingi misrada insonning oqilligi uning moli bilan emas, balki uning sabri bilan o'lchanadi. Shunday ekan, inson qanoatni hayotning asosiy maslagi deb bilishi lozim. 3-4- misralarda dunyo molining kam ekanligidan mahzun bo'lmaslikni va nasiba qancha bo'lsa shukr qilish joizligi aytiladi. Chunki boylik ko'paygandagi xursandchilik uning kamayganidagi g'am oldida arzimaydi..

Fikring otini tama maydoni ichra surmakim,
Yuz qanoat go'shasidin o'zga sori urmakim,
Har na bor-u yoqingga rozi bo'l-u qoyg'urmakim
Istabon aysh,Ogahiy ,g'am boshingga kelturmakim,
Dahr bazm-u ayshi anduh-u g'amig'a arzimas.

Ma'lumki,Ta'ma maydoni-hirs,mol-davlatga muhabbat qo'yishdir.Inson fikrini shu kabi foniy dunyo lazzatlari bilan to'ldirmasligi lozim.Inson berilgan taqdiriga va nasibasiga qanoat qilib,boriga ham yog'iga ham rozi bo'lishi kerak.Dunyo aysh-ishrati uchun boshga tashvish keltirmaslikni,dunyo bazmi hatto bir lahzalik keladigan g'am oldida ham arzimaydi deb ta'kidlaydi Ogahiy.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak,Ogahiyning bu muxammasi nafaqat o'z davri uchun,balki hozirgi zamonamiz uchun ham dolzarb mavzu bo'ladi,desak,mubolag'a bo'lmaydi.Har bir davrda ham nafs ketidan quvadiganlar va mol-dunyoga ortiqcha ruju qo'yadiganlar uchraydi.Ogahiy shunday insonlarni ogohlikka da'vat etib foniy dunyo yolg'onlaridan yiroqda bo'lib o'zlikni yo'qotmaslikka chorlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.O.Karimov.Mumtoz she'riyat janrlari.Uslubiy qo'llanma.Namangan.2015.
- 2.Majidiy R.Ogahiy lirikasi.T.,Fan,1963.
- 3.Ogahiy musammatlari.Gulnoz Xalliyeva .Monografiya.Toshkent.2019.
- 4.Muhammad Rizo Ogahiyning o'zbek mumtoz adabiyoti rivojida tutgan o'rni.Respublika ilmiy-nazariy anjuman materiallari.Toshkent.2020.
- 5.www.google.uz
- 6.www.saviya.uz